

# XORIJIY VALYUTADA MUDDATLI DEPOZIT HISOBVARAG'I BO'YICHA

## «SavingId»-sonli SHARTNOMA

Toshkent sh.

«Date»

“TBC Bank” ATB (keyingi o’rinlarda “Bank” deb nomlanadi) «DisbursementResponsiblePerson» nomidan Nizom asosida ish yurituvchi, bir tomondan va ««FullName»» (keyingi o’rinlarda “Omonatchi” deb nomlanadi) ikkinchi tomondan, birqalikda “Tomonlar” deb nomlanadi, mazkur Muddatli depozit hisobvarag’i bo’yicha Shartnomani (keyingi o’rinlarda “Shartnoma” deb nomlanadi) quyidagilar haqida tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

**1.1.** Mazkur Shartnoma Omonatchi tomonidan “TBC Bank” ATBning mahsulot va xizmatlarini taqdim etish bo’yicha Umumiy shartlarga (keyingi o’rinlarda “Umumiy shartlar”), ushbu Shartnomaning shartlariga rozilik bildirish va bank hisobvarag’larini ochish hamda xizmat ko’rsatish va boshqa bank mahsulotlarini va xizmatlarini taqdim etish bo’yicha Ariza/So’rovni imzolash/qabul qilish orqali tuziladi. Omonatchi uchun masofadan turib muddatli depozit hisobvarag’ini ochish (20606) va unga Omonatchining mablag’larini kiritish rozilikni ifodalaydi. Shartnoma muddatli depozit hisobvarag’iga mablag’lar kelib tushgan sanadan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

- 1.2.** Mazkur Shartnoma Umumiy shartlar va Ariza/So’rovning ajralmas qismidir.  
**1.3.** Ushbu Shartnomada foydalanilgan atamalar va ta’riflar Umumiy shartlarda ko’rsatilgan.

### 2. SHARTLAR, PUL MABLAG'LARINI JOYLASHTIRISH VA QAYTARISH

**2.1.** Omonatchi bankda ochilgan istalgan hisobvarag’idan, “TBC Bank” mobil ilovasiga biriktirilgan istalgan bank kartasidan pul mablag’larini kiritadi va Bank ushbu Shartnoma shartlariga ko’ra masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish tizimidan foydalangan holda Omonatchidan pul mablag’larini faqat naqd pulsiz shaklda Bank kursi bo’yicha milliy valyutadagi hisobvarag’lardan avtomatik konvertatsiya qilish yo’li bilan qabul qiladi, shuningdek, depozit summasi hamda hisoblangan foizlarni ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda qaytarish majburiyatini oladi.

- 2.2. Shartnoma shartlari:**
- 2.2.1.** Foiz stavkalari: «InterestRate» yillik;
- 2.2.2.** Depozit muddati (oylar soni): «Terms»;
- 2.2.3.** Muddatli depozit hisobvarag’ini ochish uchun minimal summa: 100 (yuz) AQSh dollari;
- 2.2.4.** Maksimal summa: 50 000 (ellik ming) AQSh dollari;
- 2.2.5.** Qo’shimcha to’lovlar: ko’zda tutilgan;
- 2.2.6.** Pul mablag’larini qisman yechib olish ko’zda tutilmagan.
- 2.2.7.** Muddatli depozitni muddatdan oldin to’liq yopish quyidagi shart bilan ko’zda tutilgan, agar Omonatchi masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi orqali O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga muvofiq belgilangan muddat ichida o’ziyati haqida xabar

bersagina. Bank Omonatchining so'roviga muddatidan oldin javob berish huquqiga ega. Shu bilan birga, hisoblangan va to'langan foizlarni quyidagi stavkalar bo'yicha qayta hisoblaydi: «PenaltyRates», foizlar bo'yicha ortiqcha to'langan summa Bank tomonidan asosiy depozit summasidan ushlab qolinadi.

**2.2.8.** Qo'shimcha to'lovlar va muddatli depozitni to'liq yopilish imkoniyati quyidagi holatlarda mavjud bo'lmasligi mumkin:

- Agar masofaviy bank xizmatini taqdim etish tizimi bank operatsiyalari ishtirokchilarining birida mavjud texnik sabablariga ko'ra vaqtinchalik ishlamas;

- Operatsion kunning yopilish jarayonida.

**2.2.9.** Foizlarni kapitallashtirish ko'zda tutilmagan.

**2.3.** Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish instrumentlari yordamida ushbu shartnomani qabul qilish orqali Omonatchi Bankning [www.tbcbank.uz](http://www.tbcbank.uz) veb-saytida joylashtirilgan ushbu bank mahsuloti bo'yicha Bank tomonidan taklif etilayotgan tariflar, limitlar va shartlarga o'z roziligini bildiradi.

**2.4.** Muddatli depozit hisobvarag'iga kelib tushayotgan pul mablag'lari shu kunning o'zidayoq kirim qilinadi,

**2.5.** Depozit muddati tugagandan so'ng, mablag'lar faqat naqd pulsiz shaklda Bankda ochilgan VISA virtual bank kartasiga Omonatchining iltimosiga binoan keyingi bank operatsion kunidan kechiktirmay o'tkaziladi.

**2.6.** Depozit Omonatchining ixtiyoriga ko'ra muddatidan oldin yopilgan taqdirda, mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida nazarda utilgan muddatlarda Bankda ochilgan VISA virtual bank kartasiga faqat naqd pulsiz shaklda o'tkaziladi.

**2.7.** Muddatli depozitning muddati tugaganidan so'ng mazkur Shartnoma muddatinini uzaytirish ko'zda tutilmagan.

**2.8.** Agar VISA virtual bank kartasi bloklangan bo'lsa, amal qilish muddati tugagan va/yoki texnik sabablarga ko'ra ishlamayotgan bo'lsa, ushbu Shartnomaning 2.5-bandda, 2.6-bandda va 3.2-bandda nazarda utilgan harakatlardan mavjud bo'lsa, to'lov Bankda ochilgan istalgan hisob raqamga yoki milliy valyutadagi bank kartasiga Bankning operatsion kunidagi kursi bo'yicha amalga oshiriladi;

**2.9.** Muddatli depozit hisobvarag'iga qabul qilib olingan pul mablag'lari O'zbekiston Respublikasi banklarida fuqarolarning omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan 05.04.2002 yildagi 360-II-sonli "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq kafolatlanadi.

### 3. FOIZLARNI HISOBBLASH VA TO'LASH

**3.1.** Muddatli depozit hisobvarag'i bo'yicha foizlarni hisoblash har kuni milliy valyutada depozit hisobvarag'idagi qoldiqning amaldagi summasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli operatsiya kunidagi joriy kursi bo'yicha Omonatchining muddatli depozitiga pul mablag'larini omonatchiga qaytarish yoki boshqa sabablarga ko'ra muddatli depozit hisobvarag'idan to'liq hisobdan chiqarishdan oldindi kungacha amalga oshiriladi.

**3.2.** Foizlar Bankda ochilgan VISA virtual bank kartasiga Omonatchining talabiga binoan har oyda AQSh dollarida to'lanadi.

**3.3.** Omonat bo'yicha muddatidan oldin yopilgan holatlarda hisoblangan, to'langan va qayta hisoblangan foizlar bo'yicha sentning kasr qismi shakllanganda, summa butun sentgacha yaxlitlanadi.

**3.4.** Adliya vazirligi tomonidan 2004 yil 30 yanvarda 1306-sodan bilan davlat ro'yxatidan o'tgan "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq Omonatchi hisobida omonat haqiqatda joylashtirilgan kalendar kunlarning soni asos qilib olinadi. Shu bilan birga, hisob-kitob qilinadigan kunlar soni bir yilda 365 kun deb olinadi.

#### **4. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI**

##### **4.1. Omonatchi huquqlari:**

**4.1.1.** masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi orqali Bankdan muddatli depozitni to'liq talab qilish;

**4.1.2.** Masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi yordamida qo'shimcha pul mablag'larini muddatli depozit hisobvarag'iga kiritish;

**4.1.3.** Maksimal 5 (besh)ta Muddatli depozit hisobvarag'ini ochish;

##### **4.2. Omonatchi majburiyatlar:**

**4.2.1.** Mazkur Sharhnomaga shartlari bilan tanishib chiqish;

**4.2.2.** Hisobvarag'lar bo'yicha operatsiyalarni qat'iy ravishda ushbu Sharhnomaga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi, O'zbekiston Respublikasi va boshqa vakolatli organlarning normativ hujjatlariga muvofiq amalga oshirish. Masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimi orqali hisobvarag'lar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida hisobvarag'larni ochish uchun taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'g'riliği uchun Omonatchi javobgardir;

**4.2.3.** Hisobvarag'larga xatolik bilan kiritilgan va/yoki hisobvarag'lardan xatolik bilan yechib olingan mablag'lar aniqlangan bo'lsa, bu haqida har qanday mavjud usulda Bankga xabar berish; Xatolik bilan kelib tushgan pul mablag'larini o'z maqsadlari uchun ishlataslik hamda ularni Bankga darhol qaytarish uchun barcha choralarни ko'rish. Xatolik bilan kelib tushgan pul mablag'larini noqonuniy ushlab turish holatlarida, Bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi, Umumi shartlarda belgilangan choralarni ko'radi.

**4.2.4.** Manzil va/yoki telefon raqami, shu jumladan mobil telefon, familiya, ismi yoki otasining ismi o'zgarganida, shaxsiyatini tasdiqlovchi hujjat yoki mazkur Sharhnomaga shartlari bajarilishiga ta'sir qila oladigan boshqa hujjatlar almashitirilganida, Umumi shartlarda belgilangan aloqa kanallari orqali 3 (uch) kalendar kun davomida Bankga xabar berish.

##### **4.3. Bank huquqlari:**

**4.3.1.** Agar tegishli davlat organlaridan ijro hujjatlari kelib tushsa, Omonatchining e'tirozlariga qaramay, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda choralarni ko'rish, ya'ni pul mablag'larini xatlash, pul mablag'larini aktspetsiz tartibda hisobdan chiqarish, hisobvarag' bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish va h.o, shu jumladan Omonatchi hisobvarag'lari bo'yicha pul mablag'lari xatolik bilan qabul (kirim) qilingan holatlari aniqlanganida, qaytarish uchun muddatli depozit hisobvarag'i bo'yicha hisoblangan va to'langan mukofotlarni aktseptsiz tartibda yechib olish;

**4.3.2.** Bank yangiliklari, shuningdek, Omonatchining muddatli depozit hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni SMS ko'rinishida Ariza/So'rovda ko'rsatib o'tilgan Omonatchi mobil raqamiga yoki pochta xabari sifatida elektron manzilga yuborish;

**4.3.3.** Jinoyatchilik yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi harakat etish maqsadida, Bank Omonatchidan uning muddatli depozit hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarni qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumot va hujjatlarni taqdim etilishini talab qilish huquqiga ega.

**4.3.4.** O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi hamda jinoyatchilik faoliyati va terrorizmni moliyalashtirishdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan holatlarda muddatli depozit hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni va foizlar hisoblanishini to'xtatib turish yoki ularni amalgalashirishdan bosh tortish;

**4.4. Bank majburiyatları:**

**4.4.1.** Muddatli depozit hisobvarag'idagi pul mablag'larini va hisoblangan foizlarni Omonatchiga mazkur Shartnomada belgilangan tartib va shartlarga muvofiq qaytarish;

**4.4.2.** Hisobvarag'dagi pul mablag'larining xavfsizligini va yaxlitligini ta'minlash. Hisobvarag'dagi mablag'larni xatlash yoki hisobvarag'lar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan holatlardagina amalgalashiriladi.

## **5. BANK SIRI**

**5.1.** Bank O'zbekiston Respublikasining "Bank siri", Umumiy shartlar va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi Omonatchi to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiyligi va saqlanishini kafolatlaydi.

**5.2.** Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni Bank Omonatchiga yoki uning vakolatli vakiliga uning (yozma ravishda yoki elektron ko'rinishda taqdim etilgan va Omonatchi ma'lumotlarini to'liq identifikatsiyalashtirganidan so'ng) so'roviga muvofiq taqdim etishi mumkin.

**5.3.** Bank sirini tashkil etuvchi Omonatchi to'g'risidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan tartibda taqdim etiladi.

## **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIKHLARI**

**6.1.** Tomonlar o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun, Umumiy shartlarni va mazkur Shartnomani bajarmagan Tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan tartibda javobgardir.

**6.2.** Mazkur Shartnomaning shartlariga rozilik berib, Omonatchi u tomonidan joylashtirilgan pul mablag'lari qonuniy manba'ga egaligini hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadni qonuniylashtirish jarayoniga, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish uchun moliyalashtirish jarayonlariga jalg qilinmaganligini kafolatlaydi.

**6.3.** Agar Omonatchi tomonidan muddatli depozit hisobvarag'idan foydalangan holda amalgalashirilgan shubhali operatsiyalar aniqlansa, Omonatchi amalgalashirilgan operatsiyani qonuniyligini yozma ravishda tushuntirmaganicha, Bank ushbu xizmatni to'xtatib turish yoki taqdim etmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

## **7. MAXSUS SHARTLAR**

**7.1.** Bank tomonidan olingan shaxsiy ma'lumotlar quyidagi maqsadlar uchun foydalilanadi va foydalanimishni mumkin:

**7.1.1.** Omonatchi foyda oluvchi yoki manfaatdor tomon hisoblangan shartnomalarni tuzish va bajarish;

**7.1.2.** Omonatchining huquqlari va majburiyatlarini lozim darajada bajarilishini ta'minlash;

**7.1.3.** Ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlik bilan bog'liq operatsiyalarga yo'l qo'ymaslik maqsadida;

**7.1.4.** Shartnomalarni bajarish bilan bog'liq ma'lumotlarni, uchinchi tomonlar bilan birgalikda olib borilayotgan dasturlarda ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar ma'lumotlarini Omonatchiga ma'lum qilish;

**7.1.5.** Sug'urta, pochta tashkilotlariga, aloqa tashkilotlariga taqdim etish;

**7.1.6.** Bank tomonidan statistik va/yoki marketing tadqiqotlarini o'tkazish va/yoki Omonatchini Bankning yangi mahsuloti va xizmatlari hamda Bank hamkorlari haqidagi ma'lumot to'g'risida xabardor etish;

**7.1.7.** Muddati o'tgan qarzlarni undirish maqsadida davlat va boshqa tashkilotlarga taqdim etish;

**7.2.** Omonatchi muddatli depozit hisobvarag'idagi pul mablag'larini mustaqil ravishda o'z ixtiyoriga ko'ra boshqaradi, Umumi shartlarda, mazkur Shartnomada hamda amaldagi qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno.

**7.3.** Bank Omonatchining pul mablag'laridan foydalanish usulini belgilash va nazorat qilish, shuningdek, pul mablag'laridan foydalanish va ularni boshqarish bo'yicha Omonatchini huquqlariga nisbatan cheklovlarni belgilash huquqiga ega emas.

**7.4.** Shartnomada belgilanmagan Bank va Omonatchi o'rtafigi o'zaro munosabatlar Umumi shartlar hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tartibga solinadi.

**7.5.** Tomonlar uchun Omonatchining hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Makraziy banking normativ va huquqiy hujjatlari asosida belgilanadi va har ikki Tomon uchun majburiydir.

## **8. YOPISH VA SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI**

**8.1.** Muddatli depozit hisobvarag'ini yopish uchun Omonatchi ixtiyoriga ko'ra masofaviy bank xizmatlarini taqdim etish tizimidan foydalangan holda yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq ushbu Shartnomani bekor qilish asos bo'lib xizmat qiladi.

**8.2.** Shartnoma uni qabul qilgan daqiqadan boshlab kuchga kiradi. Shartnoma ma'lum muddatga tuzildi va mazkur Shartnomaning 2.2.2-bandida belgilangan muddatgacha yoki Omonatchi tashabbusi bilan istalgan vaqtida yoki Omonatchi tomonidan Shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi sababli Bankning talabiga ko'ra sud tomonidan bekor qilgan kuniga qadar yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan boshqa holatlar mavjud bo'lgan kuniga qadar amal qiladi.

**8.3.** Barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar mazkur Shartnomaga Umumi shartlarda ko'rsatib o'tilgan tartibda kiritiladi.